

## O'ZBEKISTONDA FUQUROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH.

Mahmudova Muslima Ma'rufjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti

Universiteti o'zbek tili ta'limi fakulteti ijtimoiy-

Gumanitar fanlar kafedrasi sotsiologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1137239>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda fuqorolik jamiyatni institutlarini shakllantirish va rivojlanishiga nima ekanligi haqida ma'lumot va u haqida kimlar o'z maqolalarida keltirganligi va fuqorolik jamiyatni institutlarining mamlakat hayotidagi o'rni va ahamiyatilar haqida qisqacha ma'lumot kiritilgan.

**Kalit so'zlar:** Fuqorolik jamiyat, huquq, siyosat, demokratik, iqtisod, davlat, akt, partiya, konstitutsiya.

## FORMATION AND DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN.

**Abstract.** This article contains information about the formation and development of civil society institutions in Uzbekistan, and who has written about it in their articles, as well as brief information about the role and importance of civil society institutions in the life of the country.

**Key words:** Civil society, law, politics, democratic, economy, state, act, party, constitution.

## ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ.

**Аннотация.** В данной статье содержится информация о том, что такое становление и развитие институтов гражданского общества в Узбекистане и кто упомянул об этом в своих статьях, а также краткие сведения о роли и значении институтов гражданского общества в жизни страны.

**Ключевые слова:** Гражданское общество, право, политика, демократия, экономика, государство, акт, партия, конституция.

**Kirish.** Fuqarolik jamiyatni bu qisqacha qilib aytganda, haqiqiy fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lган hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir. O'zbekistonda Fuqarolik jamiyatni deyilganda esa fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqiy madaniyatning rivojlanishi va huquqiy bilimni oshirish yo'nalishida faoliyat olib borish hisoblanadi. Ushbu jamiyat, demokratik hamkorlik, huquqiy tartib va fuqarolar o'rtasidagi barqaror munosabatlarni asosida O'zbekiston jamiyatining huquqiy mehnatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tashkilotlardan biri hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyat – konstitutsiyaviy huquq nazariyasida huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usuli; insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi va inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko'p partiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilmayilligi ta'minlanadigan hamda o'zinio'zi boshqarish organlarining mavqeい baland bo'lgan ijtimoiy tuzum. Bunda mamlakatning har bir fuqarosi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy

jihatdan o‘z ehtiyojlarini jamoat birlashmali va fondlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiylar va nodavlat notijorat tashkilotlar ishida faol ishtirok etib, ular orqali qondiradilar.

Fuqarolik jamiyatida fuqarolar davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatadilar, davlatning ko‘pgina vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi. Davlat hokimiyati esa mamlakatning umumiy taraqqiyot rejalarini tuzadi, uning strategiyasini ishlab chiqadi, mudofaa, milliy xavfsizlik, davlat mustaqilligi va chegaralari daxlsizligini, uning suverenitetini ta’minlash, pulmoliya, soliq, bank siyosati, tashqi siyosat va jahon hamjamiyatni bilan aloqalar tizimini yaratadi, uni boshqaradi. Fuqarolik jamiyatini qurish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichmabosqich o‘tish orqali ro‘y beradi.

**Metod va materiallar:** Fuqarolik jamiyat haqida ilk tasavvurlar Aristotelning “Siyosat” asarida bayon etilgan. Unga ko‘ra, insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatining adolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilishi orqali ta’minlanishi lozim. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to‘g‘ri va adolatli bo‘lishiga alohida e’tibor beriladi. Bu g‘oyalar XVII asrga kelib keng rivojlandi.

Fuqarolik jamiyati institutlari – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga xizmat qiladigan nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmali, oila, mahalla, ijtimoiy harakatlar va boshqa tuzilmalar majmuidir.<sup>1</sup>

Fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakat hayotidagi o‘rni va ahamiyati aholining turli ijtimoiy guruhlari manfaatlarini ifoda etishda, fuqarolar ongida demokratik qadriyatlarini mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro‘y berayotgan demokratik o‘zgarishlarning ko‘lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda, davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borishning asosiy vositasi, butun jamiyat ahamiyatiga molik masalalarni hayotga tatbiq etishda davlatning teng huquqli ijtimoiy shergi, hamkorisifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda fuqarolik jamiyati bu ijtimoiy hayotning davlat ta’siri va aralashuvlaridan, ma’muriy tazyiqlardan xoli bo‘lgan hamda insonlarning xususiy turmush sohasini tashkil etuvchi munosabatlar majmuidir.<sup>2</sup>

Fuqarolik jamiyatini tashkil etuvchi munosabatlarda huquqbazarlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaslik va fuqarolik jamiyatining barcha a’zolari uchun teng erkinlikni targ‘ib etuvchi huquqiy g‘oyalar adolat-ning oliv shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish muammolari asosan XVII asrda G.Grotsiy, T.Gobbs, D.Lokk, XVIII asrda J.J.Russo, Sh.Monteske, V.Gumboldt, D.Viko kabi mutafakkirlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, aslida antik davr namoyondasi Aristotelning siyosiy-huquqiy qarashlarida ilk bora fuqarolik jamiyatiga oid fikrlar uchraydi. Demak, fuqarolik jamiyatini shakl-lantirish masalalari doimo insoniyat nazarida bo‘lib kelgan.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi bir necha asr davom etgan bo‘lib, uning ayrim elementlari antik davrda G‘arbiy Yevropaning ba’zi bir hududlarida mavjud bo‘lgan. Bu mintaqada hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivoji tovar-pul munosabatlarini vujudga keltirgan holda xususiy huquqqa oid bir qator institutlar (xususan Rim xususiy huquqi) shaklida

<sup>1</sup> Matyaqubov X. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. 2021. – 75-b.

<sup>2</sup> Odilgoriyev X. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. – 451-b.

mustahkamlangan. Ammo ular fuqarolik jamiyatining eng sodda ko‘rinishdagi o‘choqlari bo‘lib, ba‘zi mintaqalarda sinfiy jamiyatlar bilan uyg‘unlashgan holda mavjud bo‘lgan. Fuqarolik jamiyati insoniyatning taraqqiyot mahsuli sifatida huquqiy davlatning shakllanishining boshlanishi davrida paydo bo‘ladi. Barcha fuqarolarda xususiy mulk asosida iqtisodiy mustaqillikka erishish imkoniyatining paydo bo‘lishi fuqarolik jamiyati vujudga kelishining zaruriy sharti hisoblanadi. Jamiyat demokratik taraqqiyotning muayyan bosqichidagina fuqarolik jamiyatiga aylanadi va davlatning iqtisodiy, siyosiy rivoji darajasiga, xalqning moddiyima’naviy farovonligi, madaniyati hamda ongi o‘sishiga qarab shakllanadi.<sup>3</sup>

Fuqorolik jamiyati qator tamoyillarga tayanib faoliyat ko‘rsatadi. Jumladan: - siyosiy sohada hamma odamlarning huquq va erkinliklarining tengligi; - butun jahon hamjamiyatida yuridik kuchga ega bo‘lgan qonunlar asosida fuqarolar huquq va erkinliklarini kafolatlangan huquqiy himoyasi; - individlarni mulkka ega bo‘lish va halol mehnati uchun adolatli haq olish huquqiga asoslangan iqtisodiy mustaqilligi; - qonun bilan kafolatlangan fuqarolarni manfaatlari, kasbiy belgilari bo‘yicha davlatdan va partiyadan mustaqil ijtimoiy birlashmalarga birlashish imkoniyatlari; - partiya va fuqarolik harakatlarini tashkil etishda fuqarolarning erkinligi; - fuqarolarni erkin, madaniyatli, ma’naviy va ijtimoiy faol, jamiyat a’zolarini qonun oldida ma’suliyatli qilib shakllantiradigan fan, madaniyat, ta’lim va tarbiya uchun zaruriy moddiy va boshqa sharoitlarni yaratish; - faqat qonun bilan cheklangan davlat tsenzurasidan tashqari OAV yaratish va faoliyat yurgizish erkinligi; - davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi munosabatni barqarorlashtiradigan mexanizmni mavjudligi, hamda fuqarolik jamiyatini ishlashini davlat organlari tomonidan xavfsizligini ta’milanishi. Bu mexanizm, rasmiy bo‘ladimi, norasmiy bo‘ladimi, u o‘z ichiga qonuniy (akt) larni, xalq vakillarini demokratik saylov bilan hokimiyatning, o‘z – o‘zini boshqarish turli organlari va h.k. tayinlash kabilari oladi.

Fuqarolik jamiyatjisiz zamонавиy davlatchilikni tasavvur qilish mumkin emas. Kuchli fuqarolik jamiyati demokratik davlatning muhim belgisi bo‘lib, aholi turli qatlamlari manfaatlari samarali himoya qilish imkonini beradi. Fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi faol ishtiropi fuqarolik jamiyatining muhim belgilardan biri hisoblanadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, harakatlar, kasaba uyushmlari, jamoat birlashmalari va jamg‘armalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, mustaqil ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini kafolatlaydigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratilgan. Ular O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining institutlari tuzilmasini tashkil etadi va fuqarolarning mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalarni bajarishda faol ishtiropini ta’minalashga ko‘maklashadi.<sup>4</sup>

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyati qurish uchun jahonda taraqqiy etgan mamlakatlarning ijtimoiy-sinfiy tuzilish tajribasini o‘rganish zarur. Rivojlangan davlatlarda asosan uch sinf tashkil topgan - boylar, mulkdorlar, o‘rta mulkdorlar va kambag‘allar. O‘zbekistonda ham mustaqillikka erishilgandan so‘ng mulk davlat tasarrufidan chiqarilib, xususiy lash-tirilib (chet el kompaniyalari bilan birga qo‘shma korxonalar qurilib) mulkdorlar sinfi paydo bo‘la boshladi. Ishbilarmon va tadbirkorlarga keng yo‘l ochildi. Davlat ularga barcha zarur

<sup>3</sup> [www.staff.tjame.uz](http://www.staff.tjame.uz)

<sup>4</sup> <https://www.insonhuquqlari.uz/uz/news/fuqarolik-jamiyati-institutlarining-ijtimoiy-siyosiy-jarayonlardagi-ishtiropi-kuchaytirilmogda>

imkoniyatlarni yaratib berdi va bermoqda. Chunki, tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, mulkdorlar sinfi qancha ko‘paysa iqtisodiy sohada o‘sish shuncha tezlashadi va fuqarolar turmushi yaxshilanadi.

## REFERENCES

1. Matyaqubov X. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. 2021. – 75-b.
2. Odilqoriyev X. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. – 451-b.
3. [www.staff.tiame.uz](http://www.staff.tiame.uz)
4. <https://www.insonhuquqlari.uz/uz/news/fuqarolik-jamiyat-institutlarining-ijtimoiy-siyosiy-jarayonlardagi-ishtiroki-kuchaytirilmoqda>
5. Gulnoz J., Bunyod N. YOSHLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH-USTUVOR VAZIFA //ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – T. 1. – №. 1.
6. Sherbutayevna J. G. et al. YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH-DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR VAZIFASI //ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – T. 1. – №. 1.
7. Джиянмуратова Г. YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2024. – №. SI-1.
8. Sherbutayevna J. G. et al. ABSENTEIZM IJTIMOIY HODISA SIFATIDA //Tafakkur manzili. – 2023. – T. 2. – C. 4-10.
9. Sh J. G. Gofurov O. Ul. Mehnat bozori. Bandlik va ishsizlik muammolari. Risola.–Toshkent: O ‘zMU, 2023.–117 b.
10. Жиянмуратова Г. Ш. Ёш сайловчи электорал хулқ-авторига таъсир қўрсатувчи омиллар/ЎзМУ хабарлари.–Тошкент, 2022. – № 1/11/1.–Б. 86-89./<https://scholar.google.com/citations>.
11. Джиянмуратова Г. Ш. ELEKTORAL XULQ-ATVORGA RATSIONAL-INSTRUMENTAL YONDASHUVNING PAYDO BO ‘LISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI //ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2022. – Т. 5. – №. 3.
12. Sherbutaevna J. G. Rational-instrumental theory of electoral behavior. – 2022.
13. Жиянмуратова Г. Ўзбекистон ёшларининг электорал маданияти. Монография.– Тошкент, 2021.–122 б.
14. Gulnoz J. Sotsiologiya tarixi.–Т.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.–466 b.
15. Zaitov E.X., Jiyamuratova G.Sh., Nurqulov B.G., Ilhomov U.U. [Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA AJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=fdboTmYAAAAJ:LO7wyVUgiFcC). – Toshkent: Zuxro baraka biznes, 2024. – 180 b. / [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA AJ&cstart=20&pagesize=80&citation\\_for\\_view=fdboTmYAAAAJ:LO7wyVUgiFcC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAA AJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=fdboTmYAAAAJ:LO7wyVUgiFcC)